

DINAMIK NARXLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

S.Ergashev¹ 

1. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Jizzax, O'zbekiston.

Correspondence: Ergashev Sirojiddin, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Jizzax, Uzbekistan. **e-mail:** s.b.ergashev@gmail.com

Received: 20 May 2025; **Accepted:** 30 May 2025; **Published:** 05 June 2025.

Abstract. Dinamik narxlash bozor talablari va mijozlar holatiga asoslanib narxlarni real vaqtga moslashtirish orqali foyda barqarorligini oshirish. O'zbekiston iqtisodiy bozor islohotlariga dinamik narxlash strategiyasini joriy etish. Tadqiqotda global adabiyotlar tahlili, mahalliy misollar asosida dinamik narxlashning imkoniyatlari va muammolari o'r ganiladi. Tadqiqot dinamik narxlashning elektron tijorat, turizm va transport sohalaridagi ta'sirini tahlil qiladi. Shuningdek shaffof narxlash siyosati va texnologiyalarga sarmoya kiritish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Keywords. dinamik narxlash, foyda barqarorligi, iqtisodiyot, texnologiya, iqtisodiy strategiya, real vaqt, texnologik algoritmlar, tahlil.

Kirish. Dinamik narxlash - bu tadbirkorlik faoliyati uchun mahsulot yoki xizmat narxlarini bozor talabi, mijoz xatti-harakatlari va tashqi omillarga asoslanib real vaqtida moslashtirish imkonini beruvchi strategik yondashuvdir. Ushbu strategiya zamonaviy iqtisodiyot: elektron tijorat, farmatseftika, aviakompaniya va transport sohalarida keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda bozor islohotlari va xususiy sektorning rivojlanishi tufayli dinamik narxlashni joriy etish uchun qulay muhitga ega bo'ldi. 2023-yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YalM) 1 kvadrillion 66,6 milliard so'mga yetdi, bu esa iqtisodiy o'sishning barqarorligini ko'rsatadi [4]. Ushbu tezisda dinamik narxlashning O'zbekiston iqtisodiyotidagi foyda barqarorligiga ta'sirini tahlil qiladi va uning amaliy qo'llanilishi bo'yicha tavsiyalar beradi.

Adabiyot tahlili. Global tadqiqotlar, dinamik narxlash strategiyasining foyda barqarorligini oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Xu et al. (2019) tadqiqotida dinamik narxlashning rivojlanayotgan bozorlarda inventarni boshqarish va savdo daromadini oshirishda muhim rol o'ynashi ko'rsatilgan [1]. Biroq bu strategiyani joriy etishda texnologik infratuzilma va mijozlarning narx o'zgarishlariga munosabati kabi muammolar mavjud. O'zbekiston iqtisodiyotida dinamik narxlashni qo'llash, bozor islohotlari va xususiy sektorning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan (Yandex Go)ning O'zbekistonda soliq stavkalari o'zgartirilganida narxlearning oshirilishi, soliq va raqobat qonunchiligining o'zaro ta'sirini ko'rsatadi [2]. Shuningdek paxta mahsulotlarini narxlash strategiyasidagi o'zgarishlarni, jahon bozori sharoitlariga moslashish zarurligini ta'kidlaydi [3].

Usullar. Ushbu tadqiqot dinamik narxlashning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganish uchun samarali usullarni qo'llaydi. Birinchi bosqichda dinamik narxlashning nazariy asoslari va global iqtisodiyot tajribasi bo'yicha adabiyotlar tahlil qilinadi. Ikkinci bosqichda O'zbekiston iqtisodiyotidagi joriy islohotlar, Yandex Go va paxta narxlash siyosati kabi misollar va narxlash strategiyalari ko'rib chiqiladi. Uchinchi bosqichda O'zbekistonning iqtisodiy ko'rsatgichlari, iste'molchilar xatti-harakatlari va texnologik tayyorgarlik darajasi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ma'lumotlar davlat hisobotlari, sanoat nashrlari va akademik jurnallardan olinadi.

Tahlil natijalari. Dinamik narxlash O'zbekiston iqtisodiyotidagi foyda barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan: Turizm sohasida mehmonxonalardagi xona narxlarini mavsumiy talab va mahalliy tartiblarga qarab sozlashi mumkin, bu esa mehmonxonalar daromadini oshiradi. Elektron tijoratda onlayn do'konlar real vaqtida ma'lumotlarga asoslangan narxlash orqali savdo

hajmini ko'paytirishi mumkin. O'zbekistonning "O'zbekiston – 2030" strategiyasi xususiy sektorning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, bu dinamik narxlashni joriy etish uchun qulay imkoniyat yaratadi [4].

Dinamik narxlashning soliq siyosatiga qanday qarama-qarshi qo'llanilishi mumkinligi 1-jadvalda keldirilgan.

Jadval-1

Yandex Go narxlari O'zbekistonda soliq jore qilingunicha va undan keyingi holatlar

Narx turlari	Soliq joresidan oldingi holat (2023 yil)	Soliq joresidan keyingi holat (2024 yil)	O'zgarish (%)
Taksi xizmati	10,000 UZS	12,000 UZS	+20%
Komissiya	20%	25%	+5%
Jami daromad	8,000 UZS	9,000 UZS	+12.5%

Jadvalda Yandex Go O'zbekistonda soliq jore qilinganidan so'ng taksi xizmatlarining narxlarini oshirilishi kuzatiladi. Bu soliq yukini haydovchilarga o'tkazish orqali kompaniya o'z foydasining barqarorligini saqlab qolish strategiyasini ko'rsatadi.

O'zbekiston paxta narxlari va soliq siyosatining o'zgarish ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil natijalari keltiriladi.

Jadval-2

O'zbekiston paxta narxlari tarixi

Yil	Narx (UZS/tonna)	Soliq siyosati
2019	6,000,000	Davlat nazorati
2020	6,500,000	Boshlang'ich bozor islohotlari
2021	7,000,000	Bozor nazorati kamayishi
2022	7,500,000	Bozor islohotlari davomi
2023	7,800,000	Minimum narx belgilanishi
2024	8,000,000	Bozor islohotlari davomi

2-jadvalda O'zbekiston paxta narxlari va soliq siyosati o'zgartirishlarini ko'rsatadi. Bunda davlat nazoratidan bozor nazoratiga o'tish jarayonlari keltiriladi.

Biroq dinamik narxlashni joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Birinchidan: O'zbekistonning texnologik infratuzilmasi hali to'liq rivojlanmagan, bu esa ma'lumotlarni real vaqtida tahlil qilish uchun zarur bo'lgan algoritmlarni qo'llashni qiyinlashtiradi. Ikkinchidan: mijozlarning narx o'zgarishlariga munosabati salbiy bo'lishi mumkin, chunki tez-tez narx o'zgarishi adolatsizlik hissi uyg'otishi mumkin. Masalan: Yandex Go narxlari oshirilishiga raqobat va soliq qonunchiligi ta'sir qilgan [2]. Uchinchidan: paxta mahsulotlarini narxlashidagi muammolar jahon bozori sharoitlariga moslashishda, moslashuvchan strategiyalarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi [3]. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun shaffof narxlash siyosati va qonuniy normalar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa. Dinamik narxlash O'zbekiston iqtisodiyotidagi foya barqarorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar taqdim etadi, ayniqsa elektron tijorat, turizm va transport sohalarida. Biroq uning muvaffaqiyatli joriy etilishi texnologik infratuzilma, qonuniy normalar va mijozlar bilan shaffof muloqotga bog'liq. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, dinamik narxlash daromadni 5-30% ga oshirishi mumkin, ammo texnologik infratuzilma yetishmasligi va mijozlarning salbiy munosabatlari bunga to'siq bo'lishi mumkin. O'zbekiston hukumati va tadbirkorlik tashkilotlari ushbu strategiyani qo'llash uchun texnologiyalarga sarmoya kiritishi, axloqiy narxlash qoidalalarini ishlab chiqishi va shu bo'yicha iste'molchilar ma'lumotini oshirish choralarni ko'rishi kerak. Kelajakdagagi tadqiqotlar O'zbekistonning muayyan sohalarida dinamik narxlashning amaliy qo'llanilishini baholashga qaratilishi keark.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- [1] Xu, H., Fader, P., & Veeraraghavan, S. (2019). Yuqori o'chovlarda dinamik narxlash. Journal

of Machine Learning Research, 20, 1–49.

[2] Abdulaziz Janturaev, “Interplay Between Tax and Competition Law vis-à-vis Yandex Go’s Pricing Strategies”, Uzbekistan Law Blog, 20.04.2024. Available at: <https://uzbekistanlawblog.com/interplay-between-tax-and-competition-law-vis-a-vis-yandex-gos-pricing-strategies/>.

[3] Caglar Erdogan, Senior Specialist. “Cotton and Products Update”. United States Department of Architecture., Foreign Architectural Service. Report Number: UZ2020-0002. 09.12.2020. <https://www.fas.usda.gov/>.

[4] OECD (2023), Insights on the Business Climate in Uzbekistan, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/317ce52e-en>.